SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I3Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 3 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 3-son (Mart, 2025). - 594 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Mansurov Ulug'bek Umarovich*
FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR
(1917-1990-YILLAR) ........ 12-20

*Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich*
O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM
SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI ........ 21-27

*Bobobekova Nargiza Ismatullayeva*
JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI
(XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) ........ 28-33

*Esanova Nilufar*
MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI
RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI ........ 34-37

*Tursunov Bekzot Yandashevich*
QO'QON XONLIGI QO'SHINING QUROL-ASLAHALARIGA OID ........ 38-45

*Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович*
АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ
ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА ........ 46-52

*Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek*
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK
ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI ........ 53-57

*Otaxanov Alisher Mamadaliyevich*
TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIY TARAQQIYOTGA
QO'SHGAN HISSALAR ........ 58-64

*Xakimov Ravshan Raimovich*
MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI ........ 65-74

*Ergashev Jahongir Yunus o'g'li*
TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK
XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI ........ 75-82

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Gabriel Ayodeji Ogunmola*
ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 83-96

*Abdullayev Altinbek Yangibayevich*
KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA
MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH ........ 97-113

*Komolov Odiljon Sayfidinovich*
KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI ........ 114-123

*Shaislamova Nargiza Kabilovna*
MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI ........ 124-134

*Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich*
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI ........ 135-147

*Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir*
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 148-152

*Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh*
BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ........ 153-158

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНІ ........ 159-166

*Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich*
OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR ........ 167-176

*Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы*
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ ........ 177-183

*To'lakov Ulug'bek Toshmatovich*
YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 184-193

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,*
IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA'SIRI ........ 194-200

*Tashanov Abduxoliq*
QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ... 201-206

*Muhamedov Asror Asadovich*
UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH ........ 207-213

*Жумаева Шахло Суюновна*
ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ ........ 214-219

*Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li*
HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI ........ 220-224

*G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 225-231

*Xaitov Lazizbek Azamatovich*
HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI ........ 232-236

*Ortiqov Shahriddin*
SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA
TEATR SAN’ATINING O‘RNI ........ 237-241

*Toshboboeva Munavar*
IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI ........ 242-248

*Murotov Elyor Narzillo o‘g‘li*
YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING
UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI ........ 249-255

*Soipova Mavjuda Karimjanovna*
FAZL IBN AHMAD TA’LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI ........ 256-260

*Ashurova Xurshida Sag‘dullaevna*
HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING
HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI ........ 261-264

*Karimov Anvarjon Lutfilloyevich*
IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI ........ 265-269

*Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich*
MA’NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI ........ 270-275

*Samadov Jonmurod*
JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI ........ 276-280

*Barnoev Sanjar Qurbonovich*
YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG‘UNLIGIGA OID
TA’LIMOTIDA ME’YOR MASALALARI ........ 281-286

*Ярлакабов Джамшид Мамасултонович*
СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ
ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 287-291

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Isanova Feruza Tulqinovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID
LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI ........ 292-297

*Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi*
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG‘ULARNI
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI ........ 298-303

*Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz*
INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA “BOYLIK” VA “FAQIRLIK”
KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ........ 304-308

*Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi*
ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN
YANGI BADIIY SHAKLLAR ........ 309-312

*Ochilova Gulnoza Farxod qizi*
NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI ........ 313-316

*Alqarov Nazarbek Alisher o‘g‘li*
IT MOTIVINING DUNYO VA O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI ........ 317-322

*Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich*
HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI ........ 323-329

*Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna*
STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES
IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES ........ 330-333

*Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu*
THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC ........ 334-337

*Amonova Dilshoda Azamat qizi*
ADABIYOTDA BADIIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI
(DEN BRAUNNING “DA VINCHI SIRI” ROMANI MISOLIDA) ........ 338-343

*Sultonova Gulchehra Xusanovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING
MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI ........ 344-348

*Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,*
CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE ........ 349-353

*Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,*
NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM
IN “THE DA VINCI CODE” ........ 354-359

*Khusenova Shosura Toshtemirovna,*
DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH:
A NEEDS ANALYSIS REPORT ........ 360-363

*Mamajanova G‘uncha, Shakirova Saida*
EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O‘ZBEK VA INGLIZ
METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI ........ 364-368

*Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi*
SODIQIY AFSHORNING “MAJMA UL-HAVAS” TAZKIRASI VA UNING O‘ZBEK
TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI ........ 369-372

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал*
КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ
ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА ........ 373-379

*Камалов Мансурхон Мухтарович*
К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ ........ 380-385

*Komilov Avazbek Bokijonovich*
QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT
YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO‘G‘RISIDAGI
PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO‘YILGAN TALABLAR ........ 386-394

*Xolov Utkir Shomurodovich,*
QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN
HOLATLAR BO‘YICHA QAYTA KO‘RISHNING AYRIM MASALALARI ........ 395-399

*Kuldoshev Ulug‘bek Otabek o‘g‘li*
KASB YUZASIDAN O‘Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK
VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING
FARQLI JIHATLARI ........ 400-407

*Ибрагимова Сабина Эркиновна*
К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .................... 408-413

*Avezov Dilshod Sadulayevich*
MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI .................... 414-418

*Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li*
VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI .................... 419-423

*Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li*
INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI .................... 424-432

*Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich*
BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH .................... 433-442

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*
ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .................... 443-449

*Raxmatov Otabek Urinbosarovich*
"JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI .................... 450-455

*Xamroyev Samijon Salimovich*
SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI .................... 456-461

*Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna*
TALABALARDA INSHONING MAZMUNIY- MANTIQIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH .................... 462-467

*Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li*
ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI .................... 468-472

*Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna*
TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI .................... 473-480

*Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,*
TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV .................... 481-486

*O'tashev Xasan Nematullayevich*
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI .................... 487-492

*Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li*
BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI .................... 493-500

*Mengliyev Bobur Normamatovich*
O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI ........... 501-507

*Gafforov Alisher Xolmurodovich*
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI ........... 508-518

*Qurbonova Bonu Quvondiq qizi*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ........... 519-524

*Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li*
O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI ........... 525-529

*Raximov Nurillo Narzullaevish*
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR ........... 530-538

*Ergashova Munisa Hoshim qizi*
MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH ........... 539-543

*Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin*
USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE ........... 544-552

*Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,*
O'QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ........... 553-560

*Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI ........... 561-565

*Evatov Saminjon Sobirovich*
JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ........... 566-572

*Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI ........... 573-577

*Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li*
TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ........... 578-582

*Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi*
1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI ........... 583-587

*Yavkochdiyeva Dilafruz*
TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ........... 588-593

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 3 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 16 February 2025
**Accepted:** 5 March 2025
**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

# APPLICATION OF FOREIGN EXPERIENCE IN PROTECTING AGAINST SPIRITUAL MARGINALIZATION

**Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich,**
Doctoral student at Termez State University
E-mail: a.shoqambarov@mail.ru

**Abstract.** This article comprehensively analyzes the phenomenon of spiritual marginalization and the experience of foreign countries in combating it. The study examines the practices of advanced nations aimed at ensuring spiritual stability through various reforms. Each model's effectiveness and its adaptability to the Uzbek mentality are carefully assessed. Based on international experience, the article proposes the development of a comprehensive approach to combating spiritual marginalization in Uzbekistan.

**Keywords:** spiritual marginalization, foreign experience, social integration, education, cultural policy, state supervision, “Kokoro no kyoiku”, “Civic and moral education”, “Hikikomori”.

# MA’NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich**
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma’naviy marginallashuv hodisasi va unga qarshi kurashishda xorijiy davlatlar tajribasi atroflicha tahlil qilinadi. Ilg‘or mamlakatlarning turli islohotlar yordamida ma’naviy barqarorlikni ta’minlash yuzasidan tajribalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda har bir modelning samaradorligi, ularning o‘zbek mentalitetiga moslashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada xorij tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ma’naviy marginallashuvga qarshi kurash bo‘yicha kompleks yondashuv shakllantirish taklifi ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy marginallashuv, xorijiy tajriba, ijtimoiy integratsiya, ta’lim, madaniy siyosat, davlat nazorati, “Kokoro no kyoiku”, “Civic and moral education”, “Hikikomori”.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N34

**Kirish.** Muammo dolzarbligi shundaki, globallashuv va texnologik inqilob davrida ma’naviy marginallashuv borgan sari jiddiy ijtimoiy-madaniy muammoga aylanib ulgurmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet orqali turli mafkuraviy oqimlarning tarqalishi va madaniy integratsiyalashuv jarayonlari oqibatida ko‘plab jamiyatlarda milliy madaniy qadriyatlarning zaiflashishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, ma’naviy me’yorlardan uzoqlashish, ijtimoiy normalarning buzilishi va identifikatsiya inqirozi jamiyatlarning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu maqolada Singapur, Germaniya, Turkiya va boshqa ilg‘or davlatlarning ma’naviy marginallashuvga qarshi kurashish bo‘yicha tajribasi atroficha tahlil qilinadi. Xorij tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun ham samarali strategiyalar taklif etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi va yangiligi shundaki, hozirgi vaqtda jamiyatlarning ma’naviy-madaniy muhitiga globalizm ta’siri ortgan bo‘lib, bu jarayon axborot vositalari orqali yanada tezlashmoqda. Shunday sharoitda milliy va diniy qadriyatlarni saqlash samarali davlat siyosatini talab etadi.

Mazkur maqola xorij tajribalarini oʻrganish va ularni Oʻzbekiston sharoitida tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ilgari suradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu maqolada ma'naviy marginallashuv jarayonini tahlil qilish va xorij tajribasini oʻrganish uchun integratsiyalashgan yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqot uchun quyidagi metodlar qoʻllanildi:

1. Qiyosiy tahlil metodi. Bu metod yordamida Singapur, Germaniya, Turkiya va boshqa davlatlarning ma'naviy marginallashuvga qarshi kurash strategiyalari oʻzaro solishtirildi.

2. Tizimli tahlil metodi. Bu usuldan ma'naviy marginallashuv sabablarini ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar nuqtayi nazaridan oʻrganishda foydalanildi.

3. Amaliy tadqiqot metodi. Bu metoddan xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma'lumotlari, soʻrovnomalar va ilmiy manbalar asosida real dalillarga tayangan holda tahlil qilishda foydalanildi.

4. Falsafiy-nazariy yondashuv metodi. Ushbu metoddan jamiyatning ma'naviy inqiroziga oid turli falsafiy paradigmalarga asoslanib, tushuncha va jarayonlarning mohiyatini ochib berishda qoʻllanildi.

Manbalarga keladigan boʻlsak, ijtimoiy-huquqiy sohadagi ma'lumotlar uchun Singapur, Yaponiya, Germaniya, Turkiya va boshqa davlatlarning davlat siyosati hujjatlari asosiy manbalar sifatida koʻrildi. Bu mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot natijalari uchun ilmiy maqolalar, falsafiy risolalar va ijtimoiy tadqiqotlar hamda ommaviy axborot vositalarining tahliliy sharhlari va soʻrovnomalar natijalaridan foydalanildi.

**Muhokama.** Singapur ma'naviy marginallashuvga qarshi kurashishda yuksak darajadagi ijtimoiy integratsiya va madaniyatlararo oʻzaro hurmatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Singapur hukumati ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish uchun axborot texnologiyalaridan juda faol tarzda foydalanadi.

Singapur maktablarida oʻquvchilarga axborot texnologiyalari yordamida axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishga oid maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Xalqaro miqyosda koʻpchilik tomonidan e'tirof etilgan "Civic and moral education" dasturi, oʻquvchilarga shaxsiy javobgarlik, jamiyatga foyda keltirish va ijtimoiy muvozanatni saqlashni oʻrgatishga qaratilgan. Singapur hukumati yoshlarni oʻziga xos ijtimoiy me'yorlarga moslashtirishga va ma'naviy markazlashtirishga katta ahamiyat beradi. "Civic and Moral Education" dasturida Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uygʻunlashtirish konsepsiyasi bor. Bunga koʻra ta'lim jarayonida an'anaviy milliy qadriyatlar zamonaviy fuqarolik fazilatlari bilan uygʻun holda oʻqitiladi, bu esa yoshlar ma'naviy marginallashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli va axborot savodxonligini oshirish konsepsiyasi ham borki, yoshlarning tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirib, ularni axborot xurujlari va "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoya qilish imkonini beradi. Singapurning yuqori samaradorligi, uning ma'naviy qadriyatlarni oʻrganishga nisbatan qat'iy yondashuvi va ularni oʻquv jarayonlariga integratsiya qilish orqali erishilgan.

Yaponiya modeli milliy an'analar va zamonaviy ta'lim uygʻunligi asosida yaratilgan. Yaponiyada ta'lim tizimi milliy an'analarni mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilishga qaratilgan. Ushbu tizim quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Axloqiy tarbiya darslari ("Kokoro no kyoiku") – har bir maktabda axloqiy qadriyatlar boʻyicha maxsus darslar oʻtiladi. Ushbu darslar orqali oʻquvchilarga yaxshi xulq, jamiyatda munosabatlar, insonparvarlik, halollik kabi fazilatlar oʻrgatiladi. "Kokoro no kyoiku" [4]

tushunchasi Yaponiyada uzoq tarixga ega boʻlib, anʼanaviy madaniyatda axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat berilgan. Zamonaviy shaklda bu darslar 20-asr oxirida va 21-asr boshlarida yanada rivojlandi, chunki jamiyatda axloqiy qadriyatlarning pasayishi va ijtimoiy muammolarning kuchayishi kuzatildi. Dars hikoyalar va misollar, muhokama va munozara, amaliy mashgʻulot tarzidagi 3 qismdan iborat. Dastlab oʻquvchilarga tarixiy shaxslar, qahramonlar yoki kundalik hayotdan olingan misollar orqali axloqiy qadriyatlar tushuntiriladi. Soʻngra, oʻquvchilar ushbu axloqiy qadriyat boʻyicha oʻzlarining fikrlarini berishadi va fikr almashadilar. Oxirgi 3-qismni esa darsdan tashqari vaqtda sinab koʻrishadi – jamoaviy loyihalar, xayriya ishlari yoki ijtimoiy faoliyat orqali axloqiy qadriyatlarni amaliyotda qoʻllashni oʻrganadilar

2. Madaniy identifikatsiyani mustahkamlash – tarix, anʼanaviy sanʼat, falsafa va maʼnaviy qadriyatlar taʼlim jarayoniga integratsiya qilingan. Bu orqali yoshlarga oʻz madaniy merosini anglash, hurmat qilish va uni keyingi avlodlarga yetkazishga yordam beriladi.

Maktablarda chado (choy marosimi), [5] ikebana (gullarni tartibga solish), kaligrafiya (shodo)[8] kabi anʼanaviy sanʼatlar oʻrgatiladi. Bundan tashqari anʼanaviy musiqa, raqs va teatr (masalan, Noh va Kabuki) maktablarda namoyish etiladi va oʻrganiladi. Hattoki, anʼanaviy festivallar (matsuri) va bayramlar ham taʼlim jarayoniga kiritilgan. Maʼnaviy qadriyatlarni asrashda yapon falsafasi, bushido (samuraylar kodeksi) [2] va zen buddizm kabi oqimlar haqida bilim beriladi. Halollik, masʼuliyat, jamoaviy ruh va tabiatga hurmat kabi tushunchalar taʼlimda muhim oʻrin tutadi. Madaniy merosni saqlab qolish uchun maktablarda anʼanaviy liboslar (kimono) kiyish, anʼanaviy oʻyinlar va sport turlari (masalan, kendo, judo) oʻrgatiladi. Oʻquvchilar uchun tarixiy joylarga ekskursiyalar va madaniy tadbirlar ham tashkil etiladi.

3. Media va axborot xurujiga qarshi kurash – maktablarda oʻquvchilarga mustaqil tafakkur qilish va axborotni tahlil qilish boʻyicha maxsus kurslar oʻqitiladi. Media savodxonligi (media literacy) va axborotni tahlil qilish boʻyicha maxsus kurslar tashkil qilingan. Bu kurslar orqali oʻquvchilarga mustaqil fikrlash, axborot manbalarini tanqidiy baholash va notoʻgʻri maʼlumotlardan (misinformation) qanday qochish kerakligi oʻrgatiladi. Bu Yaponiyaning zamonaviy taʼlim tizimining muhim qismidir. Zamonaviy dunyoda axborot oqimi juda kuchli, shuning uchun notoʻgʻri maʼlumotlar va manipulyatsiyalar tez tarqaladi. Yaponiyada bu kurslar orqali yoshlarni axborot xurujiga qarshi tayyorlashga harakat qilinadi.

Hukumat “Hikikomori”[1] (oʻzini jamiyatdan yakkalash) muammosiga qarshi psixologik va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirmoqda.

Germaniya maʼnaviy marginallashuvga qarshi kurashishning ijtimoiy jihatiga alohida urgʻu beradi. Bu model jamiyatda barcha guruhlar oʻrtasida madaniyatlararo muvofiqlikni taʼminlashga harakat qilmoqda. Germaniyada amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati va multikulturalizmga oid tashabbuslar jamiyatda yangi madaniy qadriyatlar yaratishga va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Germaniya hukumati maʼnaviy integratsiya siyosatiga asoslangan dasturlarni, xususan, maʼnaviy va diniy ongni shakllantirishga qaratilgan koʻplab loyiha va tashabbuslarni amalga oshiradi. Bu tashabbuslarda, ayniqsa, imkoniyati cheklangan va etnik jihatdan boy jamiyatlar oʻrtasida samarali ijtimoiy aloqalar oʻrnatish eʼtiborga olinadi. Germaniyada axborot texnologiyalari orqali ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali maʼnaviy qadriyatlar va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishga qaratilgan oʻquv dasturlari mavjud. Davlat darajasida madaniy merosni saqlash uchun raqamli arxivlar yaratish — masalan, Deutsche Digitale

Bibliothek (Germaniya Raqamli Kutubxonasi), bu platformada madaniy va tarixiy merosni ommaga ochiq qilish orqali saqlab qolish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Fuqarolik jamiyati va ijodiy soha vakillari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda kampaniyalar va ta’lim loyihalari ham faol ishlamoqda. Bu yoʻnalishda Goethe-Instituti ishlari va turli madaniy loyihalarni misol sifatida koʻrsatish mumkin. NetzDG dasturi ham davlat miqyosidagi loyihadir. Toʻliq nomi Netzwerkdurchsetzungsgesetz, bu “Ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish toʻgʻrisidagi qonun” boʻlib, Germaniyada 2017-yilda qabul qilingan. U koʻpincha “Social Media Law” deb ham yuritiladi. Bu qonunning asosiy maqsadi — ijtimoiy tarmoqlarda nafrat qoʻzgʻatuvchi nutq (hate speech), soxta axborot (fake news) va ekstremistik kontent tarqalishining oldini olishdir. NetzDG dastlab nafrat qoʻzgʻatuvchi nutq va ekstremizmga qarshi kurashish uchun ishlab chiqilgan boʻlsa-da, u madaniy qadriyatlarni himoya qilish va soxta axborot orqali madaniy buzilishlarning oldini olish bilan ham bogʻliq boʻldi. Germaniya oʻz tarixidan kelib chiqib, ijtimoiy tarmoqlarda:

Demokratiya qadriyatlarini targʻib qilish

Milliy tarix va madaniy meros haqida notoʻgʻri ma’lumotlarga qarshi kurash

Yoshlar orasida madaniy savodxonlikni oshirish kabi maqsadlarni ham ilgari surmoqda.

Turkiya ma’naviy marginallashuvga qarshi kurashishda ota-onalar va jamiyatning oʻzaro hamkorligiga katta ahamiyat beradi. Turkiya davlatining asosiy maqsadi – musulmon jamiyatiga xos ma’naviy qadriyatlarni saqlash va yoshlarni bu qadriyatlar asosida tarbiyalash.[6]

Turkiyada axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, ular ma’naviy tarbiya dasturlarini internet platformalarida va ijtimoiy tarmoqlarda faol tarzda targʻib qilishni boshladilar. Bunda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va yoshlarning bu tarmoqlardan oladigan ma’naviy tarbiyasini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. [3]

Turkiyaning samarali strategiyalari orasida diniy va ma’naviy qadriyatlarni yosh avlodga oʻrgatishga qaratilgan diniy va axloqiy ta’lim fani — DKAB [12] (Din Kültürü ve Ahlak Bilgisi) ya’ni “Din va axloq ta’limi” dasturini ajratish mumkin. Bu dasturda yoshlarni axloqiy jihatdan barqaror va jamiyatda mehnat etishga tayyorlashga alohida ahamiyat beriladi.

Turkiya madaniy qadriyatlarni saqlashda:

Yuridik va institutsional asoslarni kuchaytirish

Mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish

Raqamli texnologiyalar va raqamli arxivlarni rivojlantirish

UNESCO bilan faol hamkorlik qilish. [13]

Nomoddiy madaniy merosga alohida e’tibor qaratish kabi yoʻllar bilan faoliyat yuritmoqda.

Har bir mamlakat marginallashuvga qarshi oʻziga xos yondashuvni tanlagan:

Singapur marginallashuvga qarshi kuchli davlat nazorati va ijtimoiy integratsiya mexanizmlariga tayangan holda kurashadi.

Yaponiya ma’naviy marginallashuvga qarshi kurashda an’anaviy madaniy qadriyatlar va jamiyatning ichki mexanizmlariga tayanadi.

Germaniya marginallashuv muammosini yechishda ijtimoiy davlat modeli, fuqarolik jamiyati va inklyuziv ta’limga tayangan.

Turkiya marginallashuv muammosiga qarshi davlat va diniy institutlarning uygʻunligiga asoslangan yondashuvni qoʻllaydi.

Har bir modelning oʻziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud boʻlib, ularning samaradorligi mahalliy sharoit va ijtimoiy ehtiyojlarga bogʻliq.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, maʼnaviy marginallashuvdan himoyalanishda Singapur, Yaponiya, Germaniya, Turkiya kabi ilgʻor davlatlarning tajribalari juda muhimdir. Har bir davlat oʻzining madaniy, ijtimoiy va diniy xususiyatlariga mos ravishda turli yondashuvlarni qoʻllagan. Singapurning maʼnaviy marginallashuvga qarshi kurashishda olib borgan ishlari, oʻquv tizimining maʼnaviy-taʼlimiy salohiyatini oshirishga qaratilgan siyosati bilan ajralib turadi. Axborot texnologiyalarining samarali ishlatilishi va yoshlarni maʼnaviy qadriyatlar asosida tarbiyalash boʻyicha ulkan yutuqlarga erishilgan. Yaponiya modeli Oʻzbekistonga ijtimoiy uygʻunlik va milliy qadriyatlarni mustahkamlash boʻyicha foydali tajriba bera oladi. Taʼlim orqali milliy tarbiya, anʼanaviy va zamonaviy qadriyatlar uygʻunligi – asosiy jihatlardir. Bu model Oʻzbekiston uchun ijtimoiy barqarorlikni oshirish va yoshlar marginallashuvini kamaytirish boʻyicha samarali yechimlar bera oladi. Germaniya modelida jamiyatning ijtimoiy barqarorligini taʼminlashda multikulturalizm va madaniyatlararo oʻzaro hurmatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Turkiya esa oʻzining diniy qadriyatlaridan foydalanib, yoshlarni axloqiy va diniy taʼlim orqali jamiyatning asosiy qadriyatlariga moslashtirishga muvaffaq boʻlmoqda.

Bundan kelib chiqqan holda, har bir davlatning oʻziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va milliy qadriyatlari ularning maʼnaviy marginallashuvga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Ushbu tajribalardan Oʻzbekistonning oʻz sharoitiga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Maʼnaviy tarbiya va axloqiy meʼyorlarni yoshlar orasida shakllantirish uchun barcha taʼlim muassasalarida, ayniqsa maktablarda, maxsus dasturlar va kurslar tashkil etish zarur. Bu dasturlar axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni oʻz ichiga olgan holda, yoshlarni maʼnaviy qadriyatlar va jamiyatga foydali fuqaro sifatida tarbiyalashga qaratilgan boʻlishi lozim;

2. Multikulturalizmga oid taʼlimni Oʻzbekistonning ijtimoiy-madaniy muhitiga mos ravishda rivojlantirish, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan maxsus treninglar va simpoziumlar tashkil etish kerak;

3. Jamiyatni diniy va axloqiy qadriyatlar asosida integratsiya qilishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bu dasturlar, xususan, yoshlar oʻrtasida diniy sabr-toqatni rivojlantirish va axloqiy meʼyorlarga rioya qilishni ragʻbatlantirishga xizmat qilishi kerak;

4. Axborot texnologiyalarini taʼlim jarayonlariga kiritish va ularni yoshlarning maʼnaviy qadriyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida qoʻllash muhim. Bu jarayonda, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni maʼnaviy salohiyatini oshirishga qaratilgan oʻquv dasturlari amalga oshirilishi zarur;

5. Maʼnaviy integratsiya siyosatini kuchaytirish maqsadida, singapurliklarning tajribasini oʻrganib, yoshlar uchun maxsus maʼnaviy kurslar tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, taʼlim tizimi orqali yoshlarni jamiyatdagi muammolarga qarshi turishga tayyorlashda yordam beradigan materiallar ishlab chiqish kerak.

Oʻzbekistonning ijtimoiy, madaniy va diniy muhitini inobatga olgan holda, yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, taʼlim tizimiga kiritilgan islohotlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish Oʻzbekistonda maʼnaviy marginallashuvdan

himoyalanishning samarali mexanizmlarini yaratadi. Bu jarayonda yoshlarni ma'naviy tarbiyalash va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda axborot texnologiyalari va zamonaviy usullarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Artusi N., et al. Hikikomori, a risk factor for life-threatening malnutrition: a case report of an emergency within the vulnerability. Emergency Care Journal. 2025.
2. Bennett A. Bushido and the Samurai: Moral Values and Ethics in Japanese Warrior Culture. Tuttle Publishing. 2017.
3. Çakmak H. Digital Heritage in Turkey: Using ICT for Cultural Preservation. Mediterranean Archaeology and Archaeometry, 22(3), 2022. – P. 121-135.
4. Cummings W. K. Moral education in Japan: Values in a global context. University of Tokyo Press. 2015.
5. Inoue M. Chado and Kado: Traditional Japanese Arts and Durative Well-Being. Palgrave Encyclopedia of the Health Humanities. Springer. 2023.
6. Kaya Y. Cultural Heritage Protection in Turkey: Legislative Framework and Institutional Mechanisms. Journal of Cultural Heritage Management and Sustainable Development, 13(1). 2023. 54-72.
7. Nakano R., & Zhu, Y. Heritage as soft power: Japan and China in international politics. *International Journal of Cultural Policy, 26*(7). 2020. – P. 869–881.
8. Sato S. Shodo: The Quiet Art of Japanese Zen Calligraphy. Tuttle Publishing. 2014.
9. Shakambarov, A. A. (2023). MA'NAVIY MARGINALLASHUV YOSHLAR MA'NAVIYATI SHAKLLANISHIGA XAVF SOLUVCHI TAHDID SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(6), 418-422.
10. Terui T. Lost in Translation: Japan Heritage and the New Direction of Heritage Policy in Japan. In: Kawashima, N., Ferilli, G. (eds) Cultural Heritage in Japan and Italy. Creative Economy. Springer, Singapore. 2024.
11. Topçu S. Intangible Cultural Heritage Safeguarding in Turkey: Case Studies and Policy Approaches. International Journal of Intangible Heritage, 18. 2023. – P. 47-62.
12. Yıldırımer K.Ş., & Karataş E.B. (DKAB) Teachers About Measurement and Evaluation Process: Izmir Case. 2024.
13. Yılmaz A. UNESCO and Turkey: Heritage Policy Intersections. Heritage & Society, 15(2). 2022. – P. 133-148.
14. Шакамбаров, А. А. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОЙ МАРГИНАЛИЗАЦИИ. *International scientific journal of Biruni*, *2*(2), 133-137.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).